

SURXON VOHASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI VA MUAMMOLARI (1925-1941 yillar)

Isayev Oybek Ahmed o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

“Tarix” kafedrasini mudiri, (PhD)

СИСТЕМА И ПРОБЛЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ (1925-1941 гг.)

Исаев Ойбек Ахмед угли

Термезский государственный педагогический институт

Заведующий кафедрой истории, (PhD)

HEALTH CARE SYSTEM AND PROBLEMS IN SURKHAN OASIS (1925-1941)

Isaev Oybek Akhmed o‘g‘li

Termez State Pedagogical Institute

Head of the Department of History, (PhD)



E-pochta:

oisayev@gmail.com

Tel.: +998994182852

Annotatsiya: Mamlakatimizda sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan, XX asrning birinchi yarmida butun ittifoq bo‘ylab sog‘liqni saqlash tizimida ko‘plab tadbirlar amalga oshirildi. Surxon vohasi hududlarida sog‘liqni saqlash xizmati amalda mavjud bo‘lsa-da, muammolar va kamchiliklar talaygina bo‘lganligini arxiv hujjatlari asosida muammolar tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Rossiya imperiyasi, Sovet hokimiyati, Ambulatoriya, feldsherlik punktlari, Okrug, shifoxona, Denov, Boysun.

Аннотация: С установлением в нашей стране заветной власти в первой половине 20 века было реализовано множество мер в системе здравоохранения всего Союза. Хотя медицинское обслуживание в Сурханском оазисе практически доступно, проблем и недостатков немного, и они редки.

Ключевые слова: Российская Империя, Советская власть, Амбулатория, фельдшерский пункт, Округ, больница, Денов, Байсун.

Abstract: With the establishment of soviet power in our country, in the first half of the 20th century, many measures were implemented in the healthcare system throughout the Union. Although the health care service in the Surkhan oasis is practically available, problems and shortcomings are few and far between.

Key words: Russian Empire, Soviet power, Ambulatory, paramedic stations, Okrug, hospital, Denov, Boysun.

KIRISH

XX asr boshlarida Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida bo‘lib, sog‘liqni saqlash tizimiga deyarli e‘tibor qaratilmagan. Mahalliy aholi asosan xalq tabobati xizmatidan, vohaning Rossiya imperiyasida tarkibida bo‘lgan rusiyzabon kishilar istiqomat qiladigan qismida esa asosan harbiy

shifokorlar xizmatidan foydalanishgan. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ham asosiy e‘tibor iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgani holda aholi salomatligiga e‘tibor talab darajasida bo‘lmagan.

Respublika aholisining salomatligini muhofaza qilish jarayonlari bu davrda bir xilda kechmadi. 1924-yilda hozirgi O‘zbekiston hududida

2135 o'ringa mo'ljallangan 53 ta kasalxonalar ishlab turar edi. Shuningdek, yana 185 ta ambulatoriya va feldsherlik punktlari ham faoliyat ko'rsatgan. Biroq, ular, asosan, shaharlarda joylashganligi bois shahar aholisiga xizmat qilar, qishloq aholisi esa aslida barqaror tibbiy xizmat ko'rsatish doirasidan chetda qolgan edi [1].

Dastlabki davrda vohada tibbiy xizmatning yo'lga qo'yilishi mahalliy aholining sog'ligini saqlash uchun emas, balki ko'proq bu yerda ish olib borgan yevropaliklar hamda harbiylar salomatligini nazorat qilish uchun yo'lga qo'yilgan edi. Okrug sog'liqni saqlash bo'limi mudiri lavozimida faoliyat olib borgan A. Shevalovichning ma'ruzasidan shuni bilish mumkinki, okrugdagi birinchi kasalxonalar 10 o'rinli bo'lib, 1924-yil may oyida tashkil topgan. Sog'liqni saqlash bo'limida 1925 – 1926-yillarda bor-yo'g'i 7 kishi faoliyat yuritgan edi [2]. Bular – sog'liqni saqlash bo'limi mudiri, davolovchi bo'limi mudiri, sudmedekspertiza xodimi, ish yurituvchi, hisobchi, sanitar shifokor, idora xizmatchisidan iborat edi.

Okrug sog'liqni saqlash bo'limi tasarrufida 4 ta tibbiy punkt bo'lib, unda 2 ta vrach va 4 nafar feldsher ish olib borgan. Tabiiyki, yuqumli kasalliklar eng avjiga chiqqan o'sha davrda ular butun okrug aholisining salomatligini nazorat qila olmas edilar [3].

1920-yillarda aholi o'rtasida xavfli yuqumli kasalliklar – bezgak, tif, vabo, sariq, traxoma, pashshaxo'rda va qon kasalliklari ko'plab uchrab turar edi. Voha aholisi zamonaviy tibbiyotga deyarli murojaat qilmas, asosan, an'anaviy xalq tabobatidan foydalanilar edi.

1925-1926-yillarda vohada tibbiyot muassasalarini ochish va ularni mutaxassislar bilan ta'minlashga asosiy vazifa deb qaralgan [4]. 1925-yilda tashkil topgan Surxondaryo okrugining markazi Sherobodda shifoxona tashkil etish borasida ish olib borildi. Chunki, yuqorida sanab o'tilgan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash muhim ishlardan biri hisoblangan [5]. 1926-yilda 25 o'ringa mo'ljallangan okrug shifoxonasi qurib bitkazildi. Bu davrda Surxondaryo okrugining ko'pgina tumanlarida tibbiy ko'riklar va kam o'rinli kasalxonalar ochildi. O'zSSR Surxondaryo okrugi Ijroiya Qo'mitasining 1925-yil dekabrda o'tkazilgan 2 plenumida voha sog'liqni saqlash bo'limi xodimi T. Shvelovichning ma'ruzasi tinglandi. U Surxon vohasi tumanlarida sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha

amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlarni batafsil tahlil qildi.

Muallif kasalxonalar faoliyatini tanqid qilib, sog'liqni saqlash ishlarini tashkil qilishda ko'plab muammolar mavjudligini aytib o'tgan. Uning ma'lumot berishicha, tibbiy muassasalar okrugning barcha tumanlarida mavjud bo'lsa-da, butun okrug bo'yicha bitta dorixona bo'lib, u ham Termiz shahrida joylashgan edi.

USULLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Surxon vohasi hududlarida sog'liqni saqlash xizmati tarixini ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

NATIJALAR

1926-yilda Termiz shahri kasalxonasi yana 40 o'ringa kengaytirildi. Chunki harbiy vrachlar yetishmaganligi sababli bu yerga maxsus vrachlar yuborilishi nazarda tutilgan edi. Bu davrda yuborilgan vrachlar faoliyati faqat shahar aholisi bilan cheklanib qolib, qishloq aholisi e'tibordan chetda qoldirilgan edi [6].

Keyingi davrda qishloq aholisi sog'ligini saqlash maqsadida, okrugning barcha shifoxona va ambulatoriyalari xodimlariga voha aholisi orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun emlashni yo'lga qo'yish vazifasi topshirildi. Ambulatoriya shifokorlari ot-aravalarda qishloqlarni aylanib, uyma-uy yurganlar va bemorlarni izlab topganlar. Ayniqsa, o'sha yillarda qishloq bolalari o'rtasida yuqumli kasalliklar va o'lim holatlari nihoyatda ko'paygan edi. Ayrim xonadonlarda o'ta yuqumli kasalliklar tufayli oila a'zolarining hammasi qirilib ketganligi haqidagi ma'lumotlar ham mavjud.

Voha aholisini zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan xabardor qilish ishlari mahalliy tabiblar bilan hamkorlikda olib borilgan. Bu tadbirlar ko'proq aholi zich yashaydigan hududlarda amalga oshirilgan [7]. Chunki, aholi mahalliy an'anaviy tibbiyot vakillariga ko'proq ishonch bilan qaragan.

1926-1927-yillarda Surxondaryo okrugi markaziy shifoxonasining tibbiyot xodimlari orasida bitta ham o'zbek millati vakili bo'lmagan. Shuning uchun ham ko'p hollarda mahalliy aholi shifoxonaga kelmas, kelgan taqdirda ham salomatligi haqidagi shikoyatini to'liq bayon qila olmas edi.

1927-yil 6-iyulda okrug ijroqo'mining shaharlarda sanitar holatni yaxshilash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. 1927-yilning ikkinchi choragida

Boysun tumanida 20 o‘rin, Denov tumanida 40 o‘rin, Sariosiyo tumanida esa 25 o‘ringa mo‘ljallangan kasalxonalar ochish rejalashtirildi.

Bu davrda O‘zSSR Xalq komissarligining topshirig‘iga asosan, okrugdagi maktab o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlari boshlandi. Shu maqsadda, maktab o‘quvchilari va maxsus bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning sog‘lig‘ini nazorat qilish uchun tibbiy komissiya tashkil qilish to‘g‘risida yo‘riqnoma berildi[8]. Unda traxoma, kal, qo‘tir, zaxm (sifilis) kabi kasalliklar bilan og‘rigan bolalarni sog‘liqni saqlash muassasalariga jo‘natish ishlari olib borilib, ular xalq ta‘limi bo‘limi bilan hamkorlikda ish tutganlar.

1927-yilning oxirigacha okrugning barcha tumanlarini sog‘liqni saqlash maskanlari bilan to‘liq ta‘minlash vazifasi belgilandi. 1928-yili eski kasalxona okrug markazi Termiz shahriga ko‘chirildi va 1-okrug shifoxonasi deb nomlandi. Uni tibbiy kadrlar bilan ta‘minlashda harbiy qismdan bo‘shab, ishsiz qolgan tibbiyot xodimlaridan foydalanilgan[9].

1929-yilda Jarqo‘rg‘on tumani hududiga kiruvchi nafar “Qumqo‘rg‘on”, “Zarkamar” va “Yonbosh” qishloqlari birlashtirilib, Qumqo‘rg‘on paxtachilik davlat xo‘jaligi barpo etildi. O‘sha yilning o‘zida qishloq aholisiga uchta feldsherlik-doyalik punktlarida tibbiy xizmat ko‘rsatildi[10]. 1930-yillarda yangi sanoat korxonalarining ochilishi munosabati bilan ko‘plab quruvchi-injenerlar Jarqo‘rg‘on tumaniga o‘z oilalari bilan ko‘chib kela boshladilar.

O‘rganilgan davrda sog‘liqni saqlash xodimlari qishloq aholisini daladagi ish faoliyati davomida tekshirish yoki davolashga jalb qilingan. Masalan, g‘alla yig‘im-terimi mavsumida tibbiy punkt vrach hamda hamshiralari dalaga kelib, shu yerda aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazganlar. Bundan tashqari, g‘alla yig‘ilayotganda ko‘chma bolalar yaslilari tashkil qilingan [11]. Chunki, ota-onasi dalada mehnat qilayotganda bolalar tarbiyasi sog‘liqni saqlash bo‘limi xodimlariga topshirilgan. Tibbiy xodimlar joylarga borib bezgak, zaxm va yurak kasalligi bilan og‘rigan bemorlarni qishloq kengashi oqsoqollari tomonidan berilgan ot-ulov yordamida tibbiyot maskaniga olib kelganlar.

1939-yilga kelib Surxondaryo okrugi sog‘liqni saqlash boshqarmasi maktab o‘quvchi va o‘qituvchilar salomatligini nazorat qilish uchun

tibbiy kartochnalarni joriy qildi. Unga ko‘ra, Sherobod tumanidagi Zarabog‘ qishloq kengashiga tegishli to‘liqsiz o‘rta maktab direksiyasi ikki dona kartochnani 190 rublga sotib oldi. Shu munosabat bilan maktab qoshida alohida joy ajratilib, davolash bo‘limi tashkil qilindi. Maktab o‘quvchi va o‘qituvchilaridan 30 kishi mana shu kartochna orqali tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Buxoro viloyati ishchi-dehqonlarining 1940-yildagi kengashida okruglarning yirik shahar va tumanlarida brusellyoz* kasalligini davolovchi kasalxonalar tashkil qilish kerak deb topildi[13]. Unga ko‘ra, Termiz shahar va Denov tumani kasalxonalarida 15 o‘ringa mo‘ljallangan kasalxonalar tashkil qilish masalasi ko‘rib chiqildi.

1940-yilga kelib, Jarqo‘rg‘on tumanida sog‘liqni saqlash bo‘limi tashkil etildi[14]. Jarqo‘rg‘on tumanining markaziy kasalxonasida bosh shifokor lavozimida faoliyat yuritgan ixtisosligi bo‘yicha pediatr shifokor M.Kulakova tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi lavozimida ham ish olib bordi.

1940-yilda Qumqo‘rg‘on qishloq xo‘jaligi kengashida ham qishloq shifoxonasi tashkil qilindi. Mazkur shifoxona uchun Jarqo‘rg‘on tumani markaziy kasalxonasiga tegishli ishchi ot-ulovi ajratildi. Chunki, uzoq qishloqlardagi aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va emlash ishlari uchun xizmatchi ot-ulovlari zarur edi. Lekin, bu boradagi ishlar juda sekinlik bilan amalga oshirildi.

Jarqo‘rg‘on tumani ijroiya qo‘mitasi ishchi-dehqonlar kengashining qaroriga ko‘ra, 1941-yilda ko‘chirilgan kolxozlarning aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatish Angor vrachlik uchastkasiga topshirildi [14]. O‘sha vaqtda Angor qishloq kengashi Jarqo‘rg‘on tumani tasarrufida edi.

Shu yilning o‘zida sovet hukumati okrugning chegara tumanlarida chechak kasalligi bilan og‘rigan bemorlarni topish va aholini chechakka qarshi emlash haqida qaror qabul qildi. O‘zSSR xalq komissarligining sog‘liqni saqlash boshqarmasi xodimi hududga kelib, aholi o‘rtasida chechak kasalligi tarqalishini oldini olish va bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish ishlarini nazorat qilib turdi [15]. Okrugdagi barcha chegara tumanlar – Termiz shahri va tumani, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, va Sherobod tumanlarida chechak kasaliga qarshi kurash olib borildi. Bu jarayonga okrugning barcha tibbiy xodimlari, ya‘ni 40 kishi safarbar qilindi.

MUNOZARA

1940-yillarda ham tibbiy xodimlar yetishmasligi hamda tibbiy asbob-uskunalar taqchilligi sohadagi asosiy muammolardan sanalar edi. Masalan, 1941-yilda Sho‘rchi tuman sog‘liqni saqlash tizimida 5 nafar vrach, 1 nafar feldsher, 7 nafar hamshira, 6 nafar akusherka, bitta tibbiyot xodimi faoliyat olib bordi. Shu yili tibbiyot muassasalarini ko‘paytirish hisobiga okrug aholisiga 1715 o‘rinli jami 19 ta davolash muassasasi xizmat qildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, joylarga zarur bo‘lgan paytlarda markazdan malakali tibbiyot xodimlari chaqirtirildi, biroq, mahalliy kadrlar tayyorlashga umuman e‘tibor berilmadi. Markazdan kelgan malakali tibbiyot xodimlari ma‘lum muddat ishlab, sharoit yo‘qligi tufayli yana ketib qolar edilar. Shu sababli 1941-yili viloyatdagi barcha qishloqlarning faqat 27 tasida qishloq vrachlik punkti tashkil qilingan bo‘lib, ularning 12 tasida o‘rta ma‘lumotli tibbiyot xodimlari xizmat ko‘rsatishar edi. Vohada aholini uy-joy bilan ta‘minlash juda yomon holatda bo‘lib, ishga kelgan tibbiyot xodimlari shu muammo sababli bu yerda qolishni istamaganliklarini ko‘pgina manbalar ham tasdiqlaydi.

Ko‘rib o‘tilgan ma‘lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, vohada aholi sog‘lig‘ini saqlash maqsadida sovet hukumatining dastlabki kunlarida bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Xususan, yangi tibbiy maskanlarni tashkil etish, shifokorlar va tibbiy xodimlar sonini ko‘paytirish, ayrim kasalliklarning oldini olish va davolashda ijobiy natijalar kuzatildi. Lekin, shifoxonalar, ambulatoriyalar, tibbiyot xonalari va bolalar bog‘chalari voha aholisi uchun yetarli emas edi. Shu bilan birga, tibbiyot maskanlari ta‘minoti va moddiy-texnikaviy bazasi o‘ta past darajada edi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekistonning yangi tarixi ikkinchi kitob O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. – B. 369.
2. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2393-ish, 99-varaq.
3. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2323-ish, 32-varaq.
4. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2393-ish, 115-varaq.
5. Abdivo‘hid K. va boshqalar. Shifokorim (tarixiy lavhalar esselar). – T.: Istiqol, 2006. – B. 5.
6. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 9-ish, 415-varaq.
7. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2393-ish, 8-varaq.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 89-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 104-ish, 607-varaq.
9. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 77-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 5-ish, 264-varaq.
10. Xoliyorov X. va boshqalar. Qumqo‘rg‘on tibbiyotining 75 bahori. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 8.
11. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 10-ro‘yxat 484-ish, 195-varaq.
12. Jarqo‘rg‘on tuman davlat arxivi, 20-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 195-ish, 16-varaq.
13. Tursunov S., To‘xtaev A. Jarqo‘rg‘on. – T.: Fan, 2008. – B. 125.
14. Jarqo‘rg‘on tuman davlat arxivi, 20-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 211-ish, 11-varaq.
15. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 77-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 20-ish, 11-varaq.

